

15. 2 ga bo'linish alomati




Yondosh mavzu:
O'zbekiston tog'lari

Juft sonlar,
qo'shish va ayirishning
xossalari



1. Cho'qqiga chiqing.



2. 2, 4, 6, 8, 0 raqamlaridan barcha mumkin bo'lgan ikki xonali sonlarni tuzing. Qancha son tuzdingiz? Bu sonlarni nima birlashtiradi? Bu sonlarni qanday umumiy so'z bilan atash mumkin?

2 ga bo'linish alomati

Agar son juft raqam bilan tugasa, u holda shu son 2 ga bo'linadi.

Juft sonlar: 0, 2, 4, 6, 8.



3. {3 467, 6 350, 8 192, 12 318, 34 700, 214 806, 1 289 305, 2 002 005, 43 795 206} sonlar to'plamidan:

- A) 2 ga bo'linadigan sonlarni;
 - B) 5 ga bo'linadigan sonlarni;
 - D) 10 ga bo'linadigan sonlarni;
 - E) 2 ga hamda 5 ga bo'linadigan sonlarni;
 - F) 2 ga ham, 5 ga ham bo'linmaydigan sonlarni ko'chirib yozing.
- D va E bandlardagi sonlar guruhlari haqida nima deya olasiz?

15. 2 ga bo'linish alomati



4. Qulay usulda hisoblang. Har bir ustundagi misollarni nima birlashtiradi?

$$44 + 18 + 56$$

$$16 + 28 + 72$$

$$(63 + 48) + 37$$

$$100 - 32 - 28$$

$$80 - 46 - 34$$

$$400 - 155 - 145$$

$$175 - 39 - 75$$

$$293 - 165 - 93$$

$$304 - 57 - 104$$





5. Ifodalar tuzing va ularni ikki usulda hisoblang.

a) Alpinistlar uzunligi 100 m bo'lgan arqon o'ramidan biri 30 m, ikkinchisi 40 m bo'lgan ikkita bo'lak kesib olishlari kerak. O'ramda necha metr arqon qoladi?

b) Alpinistlar uzunligi 132 km bo'lgan masofani bosib o'tishni rejalashtirdilar. Ular birinchi kun 35 km, ikkinchi kun 45 km masofani bosib o'tdilar. Alpinistlar yana necha kilometr masofani bosib o'tishlari kerak?



6. Sxema bo'yicha tenglama yozing. Qaysi tenglama juft ildizga ega?



7. Sayyohlar belgilangan masofani 3 kun ichida bosib o'tishdi. Birinchi kun ular 50 km, ikkinchi kun birinchi kundagiga qaraganda 12 km kam, uchinchi kun esa ikkinchi kundagiga qaraganda 7 km ko'p yurishdi. Agar sayyohlar 10 minutda 1 km masofani bosib o'tishsa, ular kuniga qancha vaqt yurishgan?



8. $45\,690 + 18\,560 = 64\,250$ tenglikdan foydalanib toping:

$$18\,560 + 45\,690$$

$$64\,250 - 45\,690$$

$$4\,569 + 1\,856$$

$$1\,856 + 4\,569$$

$$45\,690 + 18\,570$$

$$18\,560 + 45\,680$$

15. 2 ga bo'linish alomati



9. Tog' cho'qqilarini o'sib borish tartibida joylashtiring?

Adelunga

4 301 m




Hazrat Sulton

4 643 m



Katta Chimyon

3 309 m



Beshtor

4 299 m




Savollarga javob bering.

a) Adelunga cho'qqisi Katta Chimyondan qancha baland?

b) Beshto'r cho'qqisi Hazrati Sulton cho'qqisidan qancha past?



10. Iymona bir xil kubiklardan shakl yasadi.
Buning uchun unga nechta kubik kerak bo'ldi?



11. Amallarni to'g'ri tartibda bajaring.

Bu yerda tog'da o'sadigan qanday dorivor o'simliklar nomi yashringan?

$$1\ 018 - 9\ 162 : (486 : 3 - 12 \cdot 12) + (4\ 509 + 1\ 765) \cdot 3$$

O 18 822

L 18

I 12 500

Ch 509

A 144

D 162

Y 19 331

A 6 274

$$(20\ 567 - 12\ 736) \cdot 109 - 845\ 902 + (28\ 257 + 73\ 383) : 35$$

A 101 640

I 786 291

N 14 321

R 2 904

A 7 677

K 10 581

V 853 579

M 7 831



12. Tog' alpinizmi musobaqasida 664 nafar tajribali va 324 nafar havaskor sportchilar qatnashdi. Havaskorlarning yarmini, tajribali sportchilarning esa uchdan bir qismini ayollar tashkil etdi. Musobaqaga jami necha nafar ayol sportchi kelgan?